



## “Temir daftar”dagilar qanday imtiyozlardan foydalanadi?

2-betda o'qing



## 8 mingdan ortiq qonun buzilishi aniqlandi

4-betda o'qing

# INSON va qonun

2023-YIL  
18-IYUL  
SESHANBA

№ 28 (1388)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



“ADOLAT”

“ADOLAT” milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



“Adolat nashrlari” telegram kanalida kuzating!



[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

ABITURIYENT – 2023

Sanoqli kunlardan keyin abituriyentlar OTMLarga o'qishga kirish uchun test sinovlari topshiradi. Testga kirishdan oldin nimalarni bilish kerak? Test kitobida nuqson aniqlansa nima qilish kerak? Javoblar varag'idagi bo'yalgan javobni o'zgartirish mumkinmi? Javobni belgilashda ruchka ham ahamiyatlimi? Qaysi holatlarda test uchun ball berilmaydi? “Shpargalka” uchun qanday jazo bor?

### Javobni belgilashda ruchka ham ahamiyatlimi?

- Abituriyent quyidagilar uchun shaxsan javobgar:
  - ✓ javoblarni havo rang pastali sharikli ruchka bilan yozish;
  - ✓ javoblar varaqasini bukmaslik, marker chizig'iga yozmaslik, javoblar varaqasi raqami ostida joylashgan doirachalarni bo'yamaslik;
  - ✓ javoblar varaqasini to'g'ri to'ldirish;
  - ✓ test kitobini va javoblar varaqasini o'z vaqtida guruh nazoratchisiga topshirish.

Abituriyent har bir testga faqat bitta javob belgilashi shart.

### Qaysi holatlarda test uchun ball berilmaydi?

- Javoblar varaqasida bo'yalgan javoblarni o'zgartirish mumkin emas.
- Quyidagi holatlarda test uchun ball berilmaydi:
  - ✓ javoblar varaqasidagi “belgilash uchun namuna” qoidasiga rioya etilmasa;
  - ✓ javoblar varaqasida doiracha bo'yalmasa;
  - ✓ ikki va undan ortiq doiracha bo'yalsa;
  - ✓ doiracha to'liq bo'yalmasa.

Abituriyent test vaqtida guruhdan chiqishi taqiqlanadi, testdan chiqqan abituriyent qaytadan testga qo'yilmaydi.


Zarurat bo'lganda test materiallarisiz, guruh nazoratchisi kuzatuv ostida guruhdan chiqish mumkin.

### “Shpargalka” uchun qanday jazo bor?

- Quyidagi hollarda abituriyent testdan chetlashtiriladi va natijalari chiqarilmaydi:
  - ✓ test o'tkaziladigan hududga yoki binoga kirishda mikrokalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa vositalar, shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa, olib kirgan bo'lsa yoki ulardan test sinovlari davomida foydalansa;
  - ✓ test materiallarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki ularga yordam bersa;
  - ✓ testda bir-biri bilan gaplashsa;
  - ✓ test materiallarini binodan tashqariga olib chiqsa, test kitobi varag'ini yirtsa;
  - ✓ test uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng test materiallarini topshirishdan bosh tortsa;
  - ✓ testda videokuzatuvlar orqali abituriyentning tartib va qoidalarga amal qilmaganligi aniqlansa.

Dilmurod RAJABOYEV,  
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

## HAYAJONLI DAMLAR YAQIN!



### Testga kirishda o'zi bilan qanday hujjatlarni olish kerak?

– Abituriyent test kuni binoga soat 07:30 (ikkinchi smena soat 14:30) gacha abituriyent ruxsatnomasi va pasporti bilan kirishi kerak. Bunda abituriyent shaxsni aniqlash vositalari hamda videofiksatsiya qurilmalari orqali tekshiriladi.

### Test varaqasida nuqson bo'lsa (masalan, matn to'liq bosilmagan, varoq tushib qolgan va h.k.) nima qilish lozim?

– Abituriyent test materiallarida nuqson aniqlasa, darhol guruh nazoratchisiga xabar berishi kerak. Nazoratchi test kitobining birinchi betiga “nuqsonli”, deb yozib abituriyentga boshqa test beradi.



5-betda o'qing

## Ustamasiz qolgan ustozlar



6-betda o'qing

## Ijara huquqi kimda qoladi?

Fermer xo'jaligining boshlig'ini o'zgartirish majburiyat emas, balki bevosita fermer xo'jaligining boshlig'i va fermer xo'jaligini boshqarishni o'z zimmasiga olayotgan oila a'zolaridan birining huquqi hisoblanadi.



8-betda o'qing

## Umr daftari

... Bugun sizga hayot yo'lini hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz ham xuddi ana shunday ta'riflarga munosib ayollar...

## 2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

**Maxsus kontingentga kiruvchi bolalar hamda ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarning bolalari davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish uchun davlat xizmatlari markazlari orqali imtiyozli navbatga qo'yiladi. Mazkur holat ustunlik huquqini yoki tegishli kontingentga kirishini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi taqdim etilgan holda rasmiylashtiriladi.**

## IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ BOLALAR...



Ariza beruvchilarda ustunlik huquqining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot so'rovnoma ko'rsatiladi. Shunga binoan, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning bolalari, ko'p bolali oilalarning farzandlari, yetim bolalar yoki ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar, "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning bolalari, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning va ichki ishlar organlari xodimlarining bolalari, talabalar va pedagoglarning bolalari, akalari yoki opalari ushbu muassasaning tarbiyalanuvchilari jumlasidan bo'lgan bolalar, ko'p tarmoqli ittisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlardan umumiy turdagi maktabgacha tashkilotlarga o'tkazilayotgan sog'aygan bolalar imtiyozli ravishda ro'yxatga kiritiladi. Bolalarni imtiyozli ro'yxat bo'yicha qabul qilish davlat-xususiy sheriklikka asoslangan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

Imtiyozli ro'yxatga kiritiladigan, shuningdek, maxsus kontingentga kiruvchi bolalar va ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarning bolalariga berilgan yo'llanmalar hamda ularning ustunlik huquqini yoki tegishli kontingentga kirishini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxalari bolalarni tashkilotga qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Imtiyozli va umumiy ro'yxatda turgan so'rovnoma bolaning yoshiga mos guruhlardagi bo'sh o'rinlar soniga qarab imtiyozli ro'yxatdan bitta so'rovnoma, umumiy ro'yxatdan bitta so'rovnoma, agar bolalar egizak bo'lsa, bir vaqtda egizaklarning so'rovnomalari tartibda navbatma-navbat shakllantiriladi va yo'llanmalar beriladi.

Ariza beruvchi bolalarni tashkilotga qabul qilishni yo'llanma shakllangandan so'ng 15 ish kuni mobaynida rasmiylashtirishga taqdir-da, yo'llanma haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

**Xurshid SHARIPOV,**  
Boysun tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi



## "Temir daftar" dagilar qanday imtiyozlardan foydalanadi?

### "TEMIR DAFTAR"GA KIRITILGAN OILA A'ZOLARI ISHGA JOYLASHTIRILADI

"Temir daftar"dagi oilalarning ishsiz a'zolari bandligini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- yangi ish o'rinlariga ishga joylashtirish;
- mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o'rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- qishloq xo'jaligi bo'limlari bilan birgalikda kooperativlarga jalb etish, g'alladan bo'shagan yerlarda takroriy ekin ekish va oborotdan chiqib ketgan yerlarni o'zlashtirish hisobiga bandlikni ta'minlash;
- kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitishni tashkil etish, tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, o'zini o'zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish orqali bandlikka ko'maklashish;
- qurilish obyektlariga ishga joylashtirish.

### TADBIRKORLIKKA JALB QILINADI

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari orqali quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

- biznes loyihalarni hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishni o'rgatish;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit olishga ko'maklashish;
- kredit ajratilgandan so'ng kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar tadbirkorligini rivojlantirishni doimiy qo'llab-quvvatlash.

Kreditlar "Temir daftar"ga kiritilgan va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga yo'naltiriladi.

### MODDIY YORDAM BERILADI

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida bir martalik moddiy yordam berilishi mumkin.

Bir martalik moddiy yordamni to'lash uchun oilalarning ehtiyojmandlik darajasidan kelib chiqib (har bir fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami ko'rsatilgan holda) bir martalik moddiy yordam berish miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxat tuman (shahar) hokimligiga taqdim etiladi.

Tasdiqlangan bir martalik moddiy yordam to'lovlari har oyning 5 - 27-kunlarida amalga oshiriladi.

Bir martalik moddiy yordam ajratish kalendar yil davomida bir marta amalga oshiriladi.

### TIBBIY XIZMAT KO'RSATILADI

Kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga tibbiy xizmat ko'rsatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tibbiy yordamga muhtoj oilalar boshqaruv ofisi tomonidan tegishli tibbiyot xodimi jalb qilingan holda o'rganiladi;
- o'rganish natijasi bo'yicha kasalligi aniqlangan va tibbiy yordamga muhtoj oila a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga yuboriladi;
- tibbiy ko'rik natijasi yuzasidan ko'rsatma bo'yicha oila a'zolari tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida statsionar yoki ambulatoriya sharoitida davolanadi;
- nogironlik belgilari aniq namoyon bo'lgan bemorlar belgilangan tartibda ko'rikdan o'tish uchun Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga yuboriladi.

### TOMORQADAN DAROMAD MANBAI SIFATIDA FOYDALANISH UCHUN KO'MAKLASHILADI

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga quyidagi yo'nalishlarda ko'maklashiladi:

- yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish;
- parranda, asalari, quyon, baliq va bedana boqishni yo'lga qo'yish;
- "Tomorqa xizmati" tashkilotlari va "Dala do'konlari"ni tashkil etish.

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer uchastkalarini ochiq elektron tanlov asosida ijaraga berish, ajratilgan yer maydonlarini sug'orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug'orish tizimi va boshqalar) va elektr energiyasi bilan ta'minlash, berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug', ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratish ishlari amalga oshiriladi.

### "TEMIR DAFTAR" QANDAY SHAKLLANTIRILADI?

"Temir daftar"ga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- kam ta'minlangan oila deb e'tirof etilgan oilalar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud oilalar;
- kam ta'minlangan yakkayolg'izlar va keksalar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;
- ko'p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;
- mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand, ya'ni surunkali yoki og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar;
- noturajoylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar.

**Salamat TUREMURATOV,**  
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

Mehnat huquqining elementlari ko'p. Shu bois, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat nizolarining turlari ham nihoyatda keng. Mehnat qilish huquqi ish beruvchi tomonidan buzilishining xavflilik belgilariga qarab ularga vakolatli organlar huquqiy baho beradi.

Mehnat qilish huquqini buzish ish beruvchi tomonidan turli harakatlarni sodir etish asosida ham yuzaga keladi. Masalan, xodimga dam olish vaqti, ta'til o'z muddatida berilmaligi, ish vaqtdan tashqari ishga jalb qilish, o'z huquqlarini kasaba uyushmalari orqali himoya qilishga to'sqinlik qilish, xodimni asossiz boshqa ishga o'tkazish kabi holatlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, xodimning mehnat stajini hisoblamaslik, mehnat daftar-chasi yuritmaslik, xodimlarning teng huquqlilik prinsipi buzilishi, bazaviy hisoblash miqdoridan kam bo'lgan miqdorda oylik ish haqi to'lash, ishga qabul qilishda ortiqcha hujjatlarni talab qilish ham shular jumlasidandir.

## ASOSSIZ ISHDAN BO'SHATISH MUMKIN EMAS!

Mehnat qilish huquqining buzilishi aholi turmush darajasi, iqtisodiyot tar-moqlari, ishlab chiqarish uchun zararli bo'lgan illatdir. Mehnat qilish huquqini buzishning ijtimoiy xavfli bo'lmagan jihatlari korxonada, muassasada, tashkilotlarda tashkil etilgan mehnat nizolari komissiyasi hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'riladi. Mehnat qilish huquqini buzishning eng xavfli ko'rinishi xodimni asossiz ishdan bo'shatish hisoblanadi. Aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini ishga qabul qilmaslik ham qo'pol qonunbuzarlikdir.

Xodimni g'ayriqonuniy ishdan bo'shatish va asossiz ishga qabul qilmaslik shaxsni tamomila mehnat qilish huquqi va uning kafolatlaridan mahrum etadi. Qonunchilik shu sababdan ham, shaxsni g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, asossiz ravishda ishga qabul qilmaslikni ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan harakat sifatida baholaydi va jinoiy jazo bilan taqiqlaydi.

Mehnat qilish huquqini buzish ko'p hollarda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ish beruvchi muayyan bir mutaxassislik, malakaga ega bo'lgan xodimlarni ishga qabul qilar ekan, ishga qabul qilish jarayonidan boshlab to xodim pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan davrda mehnatni muhofaza etish choralarini ko'rishi kerak.

Mehnat qilish huquqini buzish deganda, mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi turli-tuman nizolar tushuniladi. Ularning ayrimlari ahamiyatiga qarab mehnat nizolari komissiyasi, fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy ishlar bo'yicha sudlarga taalluqlidir.

Konstitutsiyaning 42-moddasiga muvofiq, fuqarolarning mehnat qilish huquqi muhofaza qilinadi. Unga mu-



**Mehnat qilish huquqini buzish xodim va ish beruvchi o'rtasida mehnat nizolarini keltirib chiqaradi. Mehnat qilish huquqini buzish deb ish beruvchi va xodim o'rtasida kelib chiqadigan mehnat huquqiy munosabat jarayonida ish beruvchining mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llash yuzasidan kelib chiqadigan qonun buzilish holatlariga aytiladi.**

## Mehnat qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarlik bor?

vofiq, "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi" konstitutsiyaviy huquq sifatida mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, mehnat qonunchiligini buzganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ko'pgina moddalarida mehnat qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Jumladan, kodeksning 49-moddasida mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, mazkur moddaning birinchi qismiga ko'ra, mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish bazaviy hisoblash

miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Kodeksning 49<sup>2</sup>-moddasiga ko'ra, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. 49<sup>3</sup>-moddada "vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalarini to'lash bo'yicha majburiyatdan bo'yin tovlaganlik", 49<sup>4</sup>-moddada "xorijiy ishchi kuchini O'zbekiston Respublikasiga jalb qilish va undan foydalanish tartibini buzganlik" bo'yicha javobgarlik nazarda tutilgan.

Kodeksning 50-moddasida "aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik", 50<sup>1</sup>-moddasida "xususiy bandlik agentliklari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik" uchun, 51-moddasida esa, "mehnatga ma'muriy tarzda majburlanganlik" uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Shuningdek, ta'lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish uchun ham ma'muriy javobgarlik kuchaytirilgan. Mazkur qilmish uchun fuqarolarga 2,1 million so'mdan 4,5 million so'mgacha jarima, mansabdor shaxslarga esa 3 million so'mdan 6 million so'mgacha jarima belgilangan.

E'tiborli jihati, ilgari pedagogning faoliyatiga noqonuniy aralashish uchun faqat jarima jazosi belgilangan

edi. Endilikda ushbu qilmishni takroran sodir etgan mansabdor shaxslarga 15 sutkagacha ma'muriy qamoq belgilandi.

Jinoyat kodeksining 148-moddasiga ko'ra, bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llangandan so'ng sodir etilgan bo'lishi kerak. Moddaning ikkinchi qismi dispozitsiyasida ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

## VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNAT QILISH HUQUQI

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49<sup>1</sup>-moddasiga ko'ra, "Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzganlik" uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, bunday harakat voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 148<sup>1</sup>-moddasida "Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzganlik" uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ya'ni, voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Mazkur kodeksning 148<sup>2</sup>-moddasiga ko'ra, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Xuddi shunday harakat voyaga yetmagan shaxsning nisbatan sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

**Nodirbek SALAYEV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
professori, yuridik fanlar doktori

## 4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

## Nikohni bekor qilish tartibi qanday?

- Turmushimizdan 3 nafar farzandimiz bor, ularning barchasi voyaga yetgan. Hozirda ayolim bilan birga yashamaymiz, nikohni bekor qilmoqchimiz. Tartibi qanday?

O. SHODIYEV,  
G'ijduvon tumani



- Oila kodeksining 42 va 218-moddalariga muvofiq FHDY organi mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo'lmagan er-xotinlardan nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qiladi. Agar xotin homilador bo'lsa nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etiladi. FHDY organi er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining "Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash" komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining "Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash" komissiyasini nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Alohida yashovchi er-xotinni nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani berish uchun FHDY organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki FHDY organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Arizada er-xotin ajralishga o'zaro rozi ekanliklari, voyaga yetmagan bolalari yo'qligi, shuningdek, ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDY organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi. Bunda FHDY organlari tegishli organlardan voyaga yetmagan farzandlari yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rashi mumkin.

Agar nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta'minoti haqida nizolar bo'lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi.

Er yoki xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytishi to'g'risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko'rsatilishi kerak. Nikohdan ajratish qayd etilgandan so'ng nikoh tuzilgan to'g'risidagi guvohnomaga uning tugatilgan haqida belgi qo'yiladi va arizachilariga qaytariladi. Nikohdan ajratishni qayd etishda, er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi. Er yoki xotindan birining ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etishda davlat boji to'liq miqdorda undiriladi.

Savolga G'ijduvon tuman  
FHDY bo'limi inspektori  
Zulfizar SAYFIYEVA javob berdi

## TOSHKENT

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan vakolatli tashkilot va idoralarning davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyati o'rganilganda, ayrim tashkilotlar faoliyatida tizimli muammolar va qonunbuzilishlar aniqlandi.

8 mingdan  
ORTIQ QONUN  
BUZILISHI  
ANIQLANDI

Xususan, joriy yilning o'tgan olti oyida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda 42 marotaba murojaatlarni o'rganish va monitoring tadbirlari o'tkazildi. Unda vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishida 8 mingdan ortiq qonunbuzilish holatlari aniqlandi.

Ularning 8 ming 35 tasida muddat buzilgan bo'lsa, 175 ta holatda murojaatlar asossiz rad

etilgan, 97 ta davlat xizmatlari ko'rsatilishiga oid boshqa qonunbuzilish holatlari aniqlanib, mas'ul shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llanilgan. Qonunbuzilish holatlari idoralar kesimida tahlil qilinganda kommunal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda 3 ming 290 ta, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy tuzilmalarida 1 ming 333 ta, Davlat kadastrlar palatasi hududiy tuzilmalarida 1 ming 329 ta, sog'liqni saqlash idoralari tomonidan 802 ta, soliq organlari tomonidan 663 ta qonunbuzilishiga yo'l qo'yilgan.

Shuningdek, 216 ta bandlik va mehnat munosabatlari idoralari, 210 ta mahalliy hokimliklar tizimida, 15 ta bo'xona idoralari, 449 tasi esa boshqa xizmat ko'rsatuvchi idoralar tomonidan qonunbuzilish holatlari qayd etildi.

Aniqlangan qonunbuzilish holatlarini tugatish yuzasidan vakolatli idoralarga 214 ta ogohnoma, 15 ta taqdimnoma kiritilib, 40 nafar mansabdor shaxs intizomiy javobgarlikka tortildi, 190 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llanildi.

Abbos AHMEDOV,

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

## FARG'ONA

Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasi tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilib, Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudning hal qiluv qarorini bekor qilishda amaliy yordam berishni so'ragan. Mazkur murojaat bo'yicha Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudning hal qiluv qarori o'rganib chiqildi.

## SUD QARORI BEKOR BO'LDI

Aniqlanishicha, da'vogar - "Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari" korxonasi javobgar - Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasiga nisbatan 297 million 162 ming 767 so'm asosiy qarz va sud xarajatlarini undirib berish to'g'risidagi da'vo arizasi yuzasidan yuritilgan iqtisodiy ish Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqilgan. Sudning 2023-yil 27-martdagi hal qiluv qarori bilan da'vo qanoatlantirilib, javobgar - Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasidan davlat foydasiga 5 million 943 ming 255 so'm davlat boji va da'vogar foydasiga pochta xarajatlari undirilishi begilangan.

Sud hujjatlari da'vo qilishga asos qilib olingan holatlarni o'rganish jarayonida Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudi ishni ko'rishda bir qator moddiy va protsessual huquq normalarini buzgani ma'lum bo'ldi. Sud ishni bir tomonlama, ya'ni da'vogarga yondashuv asosida olib borgan, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'liq o'rganilmagan aniqlandi. Sud qarori bilan Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasi asossiz tarzda javobgar deb topilib, 2023-yil elektr to'lovi uchun oldindan o'tkazilgan 297 million so'm mablag' da'vo talabini qanoatlantirish uchun o'tkazilgan deb hisoblangan. Oqibatda Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasiga 302 million 943 ming 255 so'm zarar yetkazilayotgani ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan holatlar bo'yicha Qo'shtepa tuman adliya bo'limi tomonidan Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudning hal qiluv qaroriga nisbatan Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasi nomidan apellyatsiya shikoyati kiritildi.

Apellyatsiya shikoyati Farg'ona viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqildi. Sud qarori bilan shikoyat qanoatlantirildi. Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudning hal qiluv qarori bekor qilinib, barcha sud xarajatlari da'vogar zimmasiga yuklatilishiga erishildi.

Sherzod TOLIBOV,  
Marg'ilon shahar Yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yurikonsulti

## TOSHKENT

Fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, ularning murojaatlarini qonuniy o'rganib chiqish adliya bo'limlarining asosiy vazifalaridan biri. Bo'ka tuman adliya bo'limi tomonidan joriy yilning birinchi yarim yilligida 270 nafar fuqaroning murojaati o'rganildi.

MUKOFOT PULI  
UNDIRIB BERILDI

Jumladan fuqaro Z. Abdurahmonova, I. Siddiqov, M. Musurmonovalar tumandagi maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 1, 4 va 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovida g'olib bo'lganini bayon qilib, ammo farzandlari uchun berilishi lozim bo'lgan mukofot pulini to'lab bermaganidan norozi bo'lib qilgan murojaati ko'rib chiqildi.

Aniqlanishicha, murojaat mualliflarining farzandlari "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" respublika tanlovida qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallashgan. Biroq, shu kunga qadar tanlov g'oliblari uchun rag'batlantirish mukofot puli berilmagan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovinin o'qitish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 36-bandi talablariga ko'ra, Prezident sovrini sifatida berilgan pul mukofotlari tanlovning belgilangan bosqichi yakunlangandan so'ng 5 ish kuni ichida o'tkazib berilishi belgilab qo'yilgan.

Bu qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbari nomiga ta'sir chorasini kiritilib, Prezident sovrini sifatida berilgan 225 million so'm pul mukofoti tanlov sovrindorlariga undirib berildi.

Gulxumor SODIQOVA,  
Bo'ka tuman adliya bo'limi bosh  
maslahatchisi

## SURXONDARYO

N. Yo'ldosheva 2021-yil mart oyidan buyon Jarqo'rg'on tuman maktabgacha ta'lim bo'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga mas'ul mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Biroq, unga to'lanishi lozim bo'lgan ustama puli to'lab berilmagan. N. Yo'ldoshevaning ushbu to'lovni undirishda amaliy yordam so'rab yozgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

SHARTNOMA SHUNCHAKI  
QOG'OZ EMAS...

O'rganish jarayonida maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan AKT bo'yicha mas'ul xodim N. Yo'ldoshevaga 2021-yilning martidan 2023-yil mart oyiga qadar to'lanishi lozim bo'lgan 24 million so'm miqdorida qo'shimcha oylik maoshi to'lanmagani o'z tasdig'ini topdi.

Vaholanki, Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budjetidan, davlat budjetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim

lavozim maoshining 100 foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanishi qayd etilgan.

Shuningdek, fuqaro X. Sherdanov Jarqo'rg'on tumanidagi "Totli non Moior" MChJ tashkiloti rahbari sifatida faoliyat yuritib kelgan. Biroq, maktabgacha ta'lim bo'limi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan mablag' to'lab berilmagan.

X. Sherdanovning ushbu to'lovni undirishda amaliy yordam so'rab yozgan murojaati o'rganilib, 2022-yil avgust-noyabr oylarida shartnomaga asosan tumanidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish haqida tuman maktabgacha ta'lim bo'limi bilan tuzilgan 4 ta shartnomaga asosan mahsulotlar yetkazib berilgan bo'lsa-da, 2 milliard 65 million 835 ming so'm pul mablag'i to'lab berilmagani aniqlandi.

Shartnoma shunchaki qog'oz emas. Tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro N. Yo'ldoshevaning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Qumqo'rg'on tumanlararo sudiga va fuqaro X. Sherdanovning manfaatida esa Qumqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizalari kiritildi.

Sudning hal qiluv qarorlari bilan tuman maktabgacha ta'lim bo'limi hisobidan N. Yo'ldosheva foydasiga 24 million so'm ish haqiga tenglashtirilgan ustama puli va X. Sherdanov (MChJ) foydasiga 2 milliard 65 million 835 ming so'mlik pul mablag'i undirilishi belgilandi.

**To'rabek ISMATULLAYEV,**  
Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

## NAMANGAN

"Nodirabegim qurilish servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari K. Nasredinov Namangan tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan o'rtalarida rasmiylashtirilgan 2020-yil 5-fevraldagi pudrat shartnomasiga asosan loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan 159 million 599 ming 374 so'mlik ish 2020-yil aprel oyida to'liq bajarilgan bo'lishiga qaramasdan, to'lov amalga oshirilmaganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan.

Tadbirkor  
manfaati  
HIMOYA  
QILINDI

O'rganish jarayonida tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda MChJ o'rtasida 2020-yil 5-fevraldagi pudrat shartnomasi rasmiylashtirilganligi va shartnomaga asosan tumanidagi "Mulla Sharif" qabristonining yordamchi binolarini joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan, MChJ tomonidan qurilish ishlari aprel oyida yakunlanib, topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilganligi aniqlandi.

O'rganish yakuni bo'yicha tuman adliya bo'limi tomonidan tadbirkor manfaatida Namangan tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan tuman obodonlashtirish boshqarmasidan MChJ foydasiga 159 million 599 ming 374 so'm undirilishi belgilandi.

**Ulug'bek JABBOROV,**  
Namangan tuman adliya bo'limi boshlig'i

## QORAQALPOG'ISTON

Beruniy tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limining axborot telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'limi xodimlari G.Y. va B.B.lar tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 2020-2021-yillarda ishlagan davrlari uchun oylik maoshiga ustama haqi to'lanmayotganini bildirib, ushbu ustamani undirib berishni so'ragan.

## USTAMASIZ QOLGAN USTOZLAR

Murojaatni o'rganish jarayonida, haqiqatan ham xodimlar G.Y. va B.B.lar tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limida 2020-yildan buyon faoliyat yuritayotgani, ularga Prezidentning 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan 2020-2021-yillar uchun ustama haqi asossiz ravishda to'lab berilmagani aniqlandi.

Vaholanki, yuqoridagi farmonning 7-bandi "g" kichik bandiga asosan davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budjetidan, davlat budjetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi, deb qayd etilgan.

Shunga asosan, adliya bo'limi tomonidan murojaat qilgan xodimlarning manfaatida 2020-2021-yillar uchun ustama mablag'ini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritilib, sudning hal qiluv qarori bilan G.Y. va B.B.larning umumiy miqdorida 80 million 835 ming 659 so'm ustama haqi undirib beriladigan bo'ldi.

**Shaxzod ISMAILOV,**  
Beruniy tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Xodim ishdan  
chetlashtirilganda,  
ish haqi  
saqlanadimi?

– Xodim ish beruvchi tomonidan unga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan ishdan chetlashtirilgan davri uchun ish haqi saqlanadimi?

**S. XALILOVA,**  
Boysun tumani



– Xizmat tekshiruvi xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgani faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararni xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir.

Mehnat kodeksining 152-moddasiga muvofiq, ishdan chetlashtirilgan xodimga ish haqi hisoblanmasligi belgilangan, biroq istisnoli holatlar ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, agar xodim ish beruvchi tomonidan unga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan ishdan chetlashtirilgan bo'lsa, ishdan chetlashtirilgan davr uchun xodimning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qolishi keltirilgan.

Shuningdek, mazkur kodeksga muvofiq, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim:

- ✓ xizmat tekshiruvi nima sababli o'tkazilayotganini bilish;
- ✓ komissiya a'zolarini rad etish to'g'risida arz qilish;
- ✓ xizmat tekshiruvi masalalari bo'yicha yozma tushuntirishlar berish;
- ✓ xizmat tekshiruvi o'tkazilishi davomida iltimosnomalar berish;
- ✓ xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yish uchun hujjatlar, ash-yoviy dalillar taqdim etish;
- ✓ guvohlarni xizmat tekshiruvi o'tkazilishi davomida keyinchalik ularni so'rovdan o'tkazish uchun taqdim etish;
- ✓ xizmat tekshiruvi materiallari bilan tanishishga, ulardan ko'chirmalar, ko'chirma nusxalar olish;
- ✓ xizmat tekshiruvi natijalari haqidagi dalolatnoma bilan tanishish;
- ✓ komissiyaning qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan yakka tartibdagi mehnat nizolari uchun belgilangan tartibda shikoyat qilish kabi huquqlarga ham ega.

**Savolga Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Quvondiq ULUG'OV javob berdi**

## 6 BILASIZMI?



Fermer xo'jaligining boshlig'ini o'zgartirish majburiyat emas, balki bevosita fermer xo'jaligining boshlig'i va fermer xo'jaligini boshqarishni o'z zimmasiga olayotgan oila a'zolaridan birining huquqi hisoblanadi.



**Oila a'zolari – er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) hisoblanadi.**

Fermer xo'jaligining boshlig'i almashgan taqdirda, yer ijarasi muddati yangidan hisoblanmaydi. Aksincha, fermer xo'jaligining yangi boshlig'iga ijaraning faqatgina qolgan muddati davomida yer uchastkasidan foydalanish huquqi o'tadi.

Fermer xo'jaligining yangi boshlig'i o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi lozim. Fermer xo'jaligiga yangi tayinlanayotgan rahbar ushbu fermer xo'jaligi oldingi rahbarining oila a'zosi ekanini tasdiqlovchi hujjatni asos sifatida keltiradi.

Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etganda, pensiya yoshiga to'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda, muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilingan, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangan taqdirda er uchastkasini ijaraga olish huquqini "Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida"gi shartnomaga o'zgartirishlar kiritish orqali talablariga javob beradigan o'z oila a'zolaridan biriga qonunchilikka muvofiq yer ijarasi shartnomasi amal qiladigan muddatga o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi keltirilgan holatlardan biri yuz berganda, fermer xo'jaligi boshlig'i o'z xohishiga ko'ra, oila a'zolaridan biriga fermer xo'jaligi boshlig'i vazifasini o'tkazishi mumkin.

## FERMER XO'JALIGI BOSHIG'INI O'ZGARTIRISH TARTIBINI BILASIZMI?

### FERMER VAFOT ETSA, YER MEROSXO'RLARGA O'TADIMI?

Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etganda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqining merosxo'rlarga o'tish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

Avvalo, meros guvohnomasi olinadi. Meros ochilgan joydagi notarius merosxo'r(lar)ning yozma arizasiga ko'ra meros guvohnomasini beradi. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi. Merosxo'r (agar ko'p bo'lsa, ulardan biri) yoki uning vakili meros qoldiruvchining vafot etgani haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirmani notariusga taqdim etadi. Fermer xo'jaligining mol-mulki qonunchilik hujjatlariga muvofiq vasiyatnoma orqali meros qilib qoldirilishi mumkin.

Shundan so'ng fermer xo'jaligi qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Bunda, merosxo'r fermer xo'jaligi boshlig'i o'zgartirish munosabati bilan fermer xo'jaligining yangi ustavini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga kelgan holda ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga fermer xo'jaligining yangilangan ustavi, fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgani haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma, meros to'g'risidagi guvohnoma ilova qilinadi. Fermer xo'jaligining yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to'lov qilinadi va qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Mazkur ishlar amalga oshirilgach, tuman (shahar) hokimligiga ariza yoziladi. Arizada merosxo'r fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgani sabab-

li fermer xo'jaligi boshlig'ini va yer uchastkasini ijaraga olish huquqini unga o'tkazish bo'yicha yer ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritishni bayon qiladi. Asos sifatida vafot etgani haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma, meros to'g'risidagi guvohnoma nuxsasi ilova qilinadi. Barcha hujjatlar hokimlikka an'anaviy tartibda qog'oz shaklida taqdim etiladi.

Shundan so'ng yer ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha shartnoma tuziladi. Yer ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha kelishuv ikki tomonlama yozma shaklda tuzilib, (1) ijaraga beruvchi – hokimlik va (2) yangi ijaraga olgan merosxo'r – fermer xo'jaligining yangi boshlig'i tomonidan uch nuxxada imzolanaadi. Shartnomaning bir nuxsasi kadastr organlariga taqdim etiladi, qolgan nuxxalari tarafdarda qoladi.

Fermer xo'jaligining yerga bo'lgan huquqi qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Buning uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritilgan kundan boshlab bir oy ichida murojaat qilish lozim. Bir oylik muddatni buzish ma'muriy jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish Kadastr organlari tomonidan 2 ish kuni ichida amalga oshiriladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari to'lov undiriladi.

### IJARA HUQUQI KIMDA QOLADI?

Fermer xo'jaligi boshlig'i pensiya yoshiga to'lganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, muddatli harbiy xizmatga chaqirilganda, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganda, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganda yer uchastkasiga bo'lgan ijarasi huquqini fermer xo'jaligining yangi boshlig'iga o'tkazishda tegishli holat yuz bergani quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Pensiya yoshiga to'langani pensiya guvohnomasi, mehnat qobiliyatini yo'qotganligi, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosasi, muddatli harbiy xizmatga chaqirilgani chaqiruvchining qayd etilgani to'g'risidagi guvohnoma, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilingani, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangani, saylanganlik to'g'risida guvohnoma asos bo'ladi.

Fermer xo'jaligi boshlig'ini o'zgartirish uchun dastlab fermer xo'jaligi a'zolarining umumiy yig'ilishi o'tkaziladi. Umumiy yig'ilishda fermer xo'jaligi boshlig'ini almashtirish va ustavga o'zgartirish kiritish masalalari muhokama qilinadi. Yangi nomzodning ma'lumotlari ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy yig'ilish yakuni bo'yicha qaror qabul qilinadi. Shundan so'ng fermer xo'jaligi

va uning yangi ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Fermer xo'jaligining yangilangan ustavini qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga o'zi kelgan holda murojaat qilish lozim.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun tarafdor tomonidan imzolangan yer ijarasi shartnomasi asos bo'ladi. Arizada fermer xo'jaligi boshlig'i almashirilgani va yangi boshlig' tayinlangani munosabati bilan tuman hokimligi va fermer xo'jaligi o'rtasida tuzilgan ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritilgani bayon qilinadi. Fermer xo'jaligining yangilangan ustavini qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to'lov qilinadi.

Shundan keyin tuman (shahar) hokimligiga ariza yoziladi. Arizaga pensiya yoshiga to'lganligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganligi, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganini tasdiqlovchi hujjatlar va umumiy yig'ilish qarori ilova qilinib, hokimlikka an'anaviy tartibda, qog'oz shaklida taqdim etiladi.


Yer uchastkasining ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha uch tomonlama shartnoma tuziladi. Mazkur shartnoma to'rt nuxxada, yozma shaklda tuziladi hamda ijaraga beruvchi – hokimlik, muqaddam ijaraga olgan – fermer xo'jaligining sobiq boshlig'i va yangi ijaraga olgan – yangi fermer xo'jaligining yangi boshlig'i tomonidan imzolanaadi. Uch tomonlama shartnomaning bir nuxsasi kadastr organlariga taqdim etiladi, qolgan nuxxalari tarafdarda qoladi.

Shundan so'ng yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun umumiy qarori va yer uchastkasining ijarasi shartnomasi asos bo'ladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritilgan kundan boshlab bir oy ichida murojaat qilish lozim. Bir oylik muddatni buzish ma'muriy jarima qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish Kadastr organlari tomonidan 2 ish kuni ichida amalga oshiriladi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari to'lov undiriladi.

**Illom MANNONOV,**

Boysun tuman adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi direktori

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar sabab jamiyat va davlat tuzilishi tubdan yaxshilanib bormoqda. Ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor qaratilayotgani yoshlarimizga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berayotgani hech birimizga sir emas.



## Baxtimiz poydevori

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, o'zgarishlar, xususiyl o'quv yurtlarining tashkil etilishi mamlakatimizda oliy ma'lumotli bo'lish istagidagi kelajak avlod uchun muhim voqeelik bo'ldi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar kontrakt pullarini to'lashlari uchun ta'lim kreditlarining ajratilishi, xotin-qizlar uchun esa ta'lim kreditining foizsiz taqdim etilayotgani yoshlarimizga yengilliklar bermoqda. Bu rag'bat ularning kelajakka ishonch bilan

sifatli ta'lim olishlari uchun zamin yaratadi, albatta. Oliy ta'limga hujjat topshirish jarayonida bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasini tanlash imkonining yaratilishi davlatimizda barcha yoshlarni oliy ma'lumotli qilishga qaratilgan yangi dunyoqarashning bir bo'lagi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari, mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturining ilgari surilishi yoshlar bilan ishlashning mahallabay tizimi yaratilishiga imkon berib, har bir yoshning kelajagi uchun mas'uliyat hissini yanada oshirdi. Inson qadri ulug'lanayotgan go'zal diyorimizda barchamiz uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilgan.


Dunyoning har bir davlati o'zining rivojlanish davrida boshqaruv, iqtisodiyot va madaniy-ma'rifiy jihatdan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Bugungi globallashtirish davrida O'zbekiston ham o'z rivojlanish bosqichida milliy o'zlikni, mentalitetini, eng asosiysi, xalq manfaatlarini chuqur o'ylagan holda bir qator islohotlar olib bormoqda. Qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash, faol tashqi siyosat, iqtisodiyotga keng investitsiyalarni jalb etish, turizm, fan

va madaniyatni rivojlantirishga doir ijobiy o'zgarishlarni o'z siyosatining asosiy omili sifatida amalga oshirmoqda.


Bunday islohotlarning asosini yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson omili birinchi o'ringa ko'tarilgani, unga yoshlar masalasi bo'yicha alohida bob kiritilgani nafaqat davlatimiz, balki xalqimiz rivoji uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, har qanday davlat o'z rivojlanish strategiyasini amalga oshirish davomida xalq manfaatlarini yaxshilash, iqtisodiyotda, harbiy sohada va boshqa ustuvor yo'nalishlarda ijobiy o'zgarishlar qilishga, o'z fuqarolari daxlsizligi, din erkinligi, farovon hayoti va tinchligini ta'minlovchi qonun loyihalarini ishlab chiqishda doimiy harakat qilib boradi. Bunday o'zgarishlar uchun esa mustahkam va har tomonlama xalq manfaatlarini ko'zlovchi asosiy qonun normalari kerak bo'ladi. Konstitutsiya ana shunday qonunlar majmuasidir, u fuqarolar daxlsizligining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

**Gulmira AKMURODOVA,**  
Buxoro tuman FHDY bo'limi mudirasi



### Shahodatnomamni topa olmayapman



– Oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirmoqchi edim. Ammo maktabdan berilgan shahodatnomamni topa olmayapman. Bunday vaqtda qanday yo'l tutishim kerak?

**O'rol SAFAROV,**  
Qiziriq tumani

– Aslo xavotirlanishga o'rin yo'q. Chunki shahodatnomangiz dublikatini olishingiz mumkin. Buning uchun my.gov.uz sayti orqali ariza topshirsangiz kifoya. Natijada tegishli ta'lim tashkilotini tamomlaganlik to'g'risida, tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnoma, umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnoma yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (maktab-internat)ni tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikat nusxasini qo'lga kiritasiz.

Buning uchun hech qanday to'lov amalga oshirilmaydi. Xizmat ko'rsatish muddati 5 ish kunidan iborat.

Ariza beruvchi ishonchnoma asosida harakat qilayotganda, so'rovnomaga notarial tasdiqlangan ishonchnoma nusxasi ilova qilinadi.

**Savolga Qiziriq tuman adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i Muhiddin BO'RIYEV**  
javob berdi

#### PSIXOLOGIK TEST

## BIRINCHI NIMANI KO'RDINGIZ?

■ Rasmda to'rt narsa: daraxt, gorilla, sher va baliqlar tasvirlangan. Ana shular ichida siz birinchi bo'lib nimani ko'rdingiz?



1. Agar siz birinchi bo'lib daraxtni ko'rgan bo'lsangiz, bu sizning bosiq, aslingiz qanday bo'lsa, shunday bo'lishni afzal ko'ruvchi va boshqalarning qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoji yo'q inson ekaningizni bildiradi.
2. Agar, birinchi galda, gorillani ko'rgan bo'lsangiz, siz har narsada mukammallikka intiluvchi (perfekcionista) insonsiz, sizga mukammal va eng yaxshi bo'lish yoqadi, shu bilan birga boshqalarga nisbatan o'ta talabchansiz, atrofingizdagilarni ko'p tanqid qilasiz.
3. Agar siz suratda birinchi bo'lib sher (urg'ochi sher)ni ko'rgan bo'lsangiz, bu sizning tashabbuskor va kuchli shaxs ekaningizdan darak beradi.
4. Agar siz suratga qarab eng avval baliqlarni ko'rgan bo'lsangiz, demak, siz yumshoq tabiatli va atrofingizdagilarga o'ta g'amxo'r insonsiz.

#### E'LONLAR

"LAWYER N QAYUMOVNA" advokatlik byurosi advokati Shayimova Negina Kayumovnaning arizasiga asosan uning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokat maqomi Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 16-iyundagi 158-um-sonli buyrug'iga asosan tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 11-iyuldagi 121-um-sonli buyrug'iga asosan Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 8-iyundagi hal qiluv qaroriga asosan "MADINABONU HIMOYASI" advokatlar hay'ati advokati Kamolov Sarvarjon Usmonqul o'g'liga 2020-yil 30-iyunda berilgan GZ 000127-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 2020-yil 8-sentabrda berilgan 120-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi tugatildi.

## 8 ADLIYA FAXRIYLARI



*Mehnat – eng yuksak  
sharaf, odamiylik – eng  
katta mukofot!*

Adliya vazirligi Faxriylar kengashi raisi o'rinbosari Erkin aka Abdullayev uzoq yillar Adliya vazirligida oddiy xizmatchi bo'lib ishlagan, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" unvoniga sazovor bo'lgan Mirfayzi Mirsamadovlar oilasining bekasi, mehnat faxriysi Muhabbat Mirsamadovani qutlug' yoshi bilan gazetamiz orqali tabriklash taklifini bildirganida, beixtiyor "yuristning ayoli qo'lini sovuq suvga urmasligi ham mumkin eduku..., nega kibru havoga berilmadi ekan, balki oilaviy sharoiti, bolalarning tarbiyasi ish tanlashga imkon qoldirmagandir? O'qish, izlanish imkonlarini yaqinlarga, farzandlarga mehribonlik va fidoiylik ko'rsatishga baxshida etgandir?", degan savollar xayolga kelgani rost.

Ha, Muhabbat Mirsamadova oddiy kasb egasi. Ammo u cheksiz hurmatga, ehtiromga sazovor ayol. Zero, insoniylik darajasi mansab, boyluk, lavozim yoki martaba bilan emas, odamiylik tarozu-sida o'lchanadi. Ayol bor joyda gulga, go'zallikka, mehribonlikka ehtiyoj bor. Har bir xonadonning yuragi, chirog'i, ishxonalarimizning ko'zgusi ayol deb ta'riflanishi bejiz emas.

Muhabbat opa ham hayotda o'zining oddiy, ammo chiroyli o'rmini topgan ayol. 1979-yildan boshlab Oliy sudda, keyinchalik "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida, 1992-yildan 2003-yilga qadar Adliya vazirligida xizmat qildi. Hali tong otmasdan ishga o'tlanishga, xodimlar ishga kelguniga qadar hammayoqni saranjom-sarishta, orasta qilishga o'rgangan bu ayol qilayotgan ishining o'ziga yarasha mas'uliyati, majburiyati borligini juda yaxshi bilgan.

Muhabbat opaning eng katta muvaffaqiyatini har qancha faxrlansa arziydigan ibratli oilada turmush o'trog'i Mirfayzi aka bilan 5 nafar farzand va 18 nabirani ardoqlab, kamolga yetkazgani, ularni halol mehnatga



Ayolning oiladagi o'rni, vazifasi, qadr-qimmatini uning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi. Chunki ayol taqdiri millat taqdiriga tutashgan, ayol qo'lida kelajakning shamchirog'i bor. Ayol buyuk bo'lmasligi, buyuk ishlarni amalga oshirmasligi mumkin, ammo u ne-ne ulug' zotlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan. Ayol olim bo'lmasligi mumkin, ammo u onalik, yor, bekalik ilmini yaxshi egallashdan baxt topgan. U zimmasidagi barcha vazifalarni bekamu-ko'st bajarishga, yelkasidagi yukni yerda qoldirmaslikka kuch topgan kuchli o'jiza.



Ayolning eng qimmatli boyligi uning farzandlari deyishadi. Dilbar opaning ham hayotdagi eng katta boyligi, suyanchig'i to'rt nafar farzandi. Turmush o'trog'i Saidjon Mo'minovning 1999-yilda 48 yoshida yurak xastaligi tufayli olamdan o'tishi unga kutilmagan zarba bo'ldi. Endi u nafaqat davlat xizmatini uddalashi, balki bolalariga ham ota, ham ona bo'lishga kuch topishi kerak. Uch o'g'il va bir qizni o'qitib, oliy ma'lumotli qildi, el qatoriga qo'shdi. Boburjon yurist – onasi bosgan izlarni bosayapti, Shofirkon tumanida xususiy amaliyot vazirligida ishlayapti. Sobirjon – mollaychi, Lobar esa ota kasbini davom ettirayapti – o'qituvchi. Kelinlar ham Dilbar opaning tartibiga, mushtni bir joyga urishiga o'rgangan, ahil va inoq. Ular hozir 12 nafar nevara, 3 nafar evaraga ko'payganligi Dilbar opaning haqiqiy baxti.

– Xalqimizda "Daraxt bir joyda ko'karadi" degan ibratli naql bor, – deydi O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi notariati bo'yicha maslahatchi Nasiba Jo'rayeva, – Dilbar opa ham bir joyda ko'kardi, ildiz otdi, umrining qariyb 40 yilini notariati sohasiga bag'ishladi. Bu ayol nafaqat o'ktam va bir so'zli huquqshunos, – balki kamtarin va samimiy, matonatli, ammo qalbi go'zal va ta'bi juda nozik ayol. Ana shu fazilatlar bilan barchamizga o'rnak bo'la olgan fidoiy hamkasbimizga har doim havasimiz kelgan.

Akademik shoir G'afur G'ulomning ajoyib satrlari bor:

*"Aziz asrimizning aziz onlari,  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.  
Fursat g'animatdir shoh satrlar-la,  
Bezamoq chog'idir umr daftarin..."*

Aziz umrini, beminnat mehrini aziz odamlarga, sevimli kasbiga, farzandlari, yaqinlariga bag'ishlayotgan mo'tabar ayollarga qutlug' 70 yosh muborak bo'lsin, umringizga umr qo'shilsin, deymiz! Umr daftaringiz baxt va saodatning shoh satrlari bilan to'liq bo'lsin!

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri

## Umr daftari



Bugun sizga hayot yo'lini hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz ham xuddi ana shunday ta'riflarga munosib ayollar.

o'rgatgani misolida e'tirof etish mumkin. Bu oila uchun mehnat – eng yuksak sharaf, odamiylik esa – eng katta mukofot!

Hayotda ajoyib falsafiy xulosa bor: "Har bir muvaffaqiyatli erkakning ortida ulug' ayol turadi". Oila boshlig'i – huquq olamida o'ziga xos o'rin topgan, respublikamizdagi tajribali huquqshunoslardan biri bo'lgan Mirfayzi Mirsamadov bir qator davlat mukofotlari, O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i, "Shuhrat" medali bilan taqdirlangani, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" unvoniga sazovor bo'lgani, albatta, oila saodati va farog'ati uchun bor kuchi va mehrini baxsh etgan ayol – Muhabbat opaning sahna ortida iftixor bilan ana shu yutuqlarning ilhomchisi va asrovchi tumori bo'lib tugurganidan dalolat beradi.

Balki, mehnatidan baxt va obro' topgan ana shunday insonlar borligi uchun ham hayotimiz go'zal va millatimizning yuzi yorug'dir.

### Shofirkonlik birinchi ayol notarius

O'tgan asrning elliginchi yillarida qizlarning yuridik sohani tanlashi, egallashi unchalik oson ish emasdi. Ayniqsa, qishloqdan chiqqan huquqshunos ayollar barmoq bilan sanarli edi. Dilbar To'rayeva Shofirkonning qaldirg'och yurist ayollaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

U Toshkent davlat universiteti (hozirgi M. Ulug'bek nomidagi Milliy universitet)ning yuridik fakultetida sirtidan o'qib, dastlab Shofirkon tumanidagi Ibrohim Mo'minov nomidagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilik qildi.

1976-yilda dorilfununni tamomlab, Shofirkon tumanida yangi ochilgan notarial idorada davlat notariusi bo'lib ish boshlagan D. To'rayeva yuridik sohaning sir-asrorlarini amaliyotda o'rgandi. Qator yillar mobaynida tajriba orttirib, o'z kasbining yetuk egasiga aylandi. Orada G'ijduvon tumanida ham notarius bo'lib ishladi. U qayerda ishlamasin, odamlar xizmatida, ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ldi, fuqarolarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirishga o'z hissasini qo'shdi. Huquqiy madadga muhtoj odamlardan maslahatini ayamadi. El o'rtasida katta hurmat va e'tibor topdi.

**INSON**  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida

0001-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

1155 0210-7877

9772036761008

**Bosh  
muharrir**

Asliddin  
ALIMARDON

**TAHRIR HAY'ATI**

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

**Navbatchi**  
Marusa Hosilova  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Jasur Tojiyboev

**Nashr indeksi: 137**

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3570  
Buyurtma – 2057

Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 20:00

**MANZILIMIZ:**

100115, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-85

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5